



## TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'llARI

**Sadikov Iskandar Gayratovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

[Sadikov1982@gmail.com](mailto:Sadikov1982@gmail.com)

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
<b>Volume:</b> 1 <b>Issue:</b> 8 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss8/a8">https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss8/a8</a>	<p>Ushbu maqolaning maqsadi tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholashga turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ular baholash maqsad va vazifalariga qarab farqlanishini tadbiq etish hisoblanadi. Bunda iqtisodiy sub'ektlar ko'pincha nazorat organlari tomonidan qo'llanilayotgan va tasdiqlangan modellarini ta'minlash uchun amalga oshirish talab etiladigan tadbirlarni aniqlashdan iborat. Ushbu qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida muallif tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilgan va natijalarga erishilgan.</p>
<b>KEYWORDS</b>	<i>Tijorat banklari, moliya tizimi, bank tizimi, banki resurslari, banklarning moliyaviy barqarorligi, bank sektori, xususiy sektor, moliyaviy vositachilik, moliyaviy qarorlar, moliyaviy barqarorlikni baholash.</i>

### Kirish (Introduction/Введение).

So'nggi o'n yilliklarda jahon bank bozori bir nechta jiddiy larzalarga duch keldi. Global pandemiya oqibatlari ko'plab tijorat banklarning, shu jumladan AQShdagi jahon ahamiyatiga ega yirik tizim tashkil etuvchi banklarning moliyaviy barqarorligiga jiddiy ta'sir etdi. Makroiqtisodiy muhit o'zgarishi sharoitida nazorat organlari va boshqa iqtisodiy sub'ektlar banklarning moliyaviy barqarorligi modellariga o'z e'tiborini oshirdilar. Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholashga turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ular baholash maqsad va vazifalariga qarab farqlanadi. Bunda iqtisodiy sub'ektlar ko'pincha nazorat organlari tomonidan qo'llanilayotgan va tasdiqlangan modellarga asoslanadilar. Shuning uchun ikkinchisi alohida asosiy ahamiyatga ega.

Jahon makroiqtisodiy muhitda yuz berayotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda, moliyaviy barqarorlikni baholash modellarining aksariyati jiddiy o'zgartirishlarni talab qildi. Birinchidan, ishlatalayotgan modellarni takomillashtirish bank barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan va ularning o'z faoliyatini davom ettirish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadigan omillarni hisobga olish uchun zarur bo'ldi. Shu munosabat bilan tijorat banklariga, ayniqsa kapital yetarliligi sohasida talablar sezilarli darajada kuchaytirildi. Bank moliyaviy holatini baholashning, bank faoliyati natijalarini prognoz qilish imkoniyatinang yangi, yanada natijali usullari ishlab chiqildi. Ikkinchidan, bank ichidagi muhitda ham sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu ko'p jihatdan texnologiyalarning faol rivojanishi (yangi texnologiyalar, moliyaviy vositalar va usullarning paydo bo'lishi), faoliyatning avtomatlashtirilishi, raqamli iqtisodiyot kabi fenomenning rivojanishi hamda xizmat va xizmatlar qatoridagi mos keladigan o'zgarishlar, biznes-jarayonlarning qayta qurilishi, ba'zi hollarda biznes-modellarning to'liq qayta qurilishi bilan bog'liq. Yuqorida fikrlar tadqiqot mavzusining dolzarbligini va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Iqtisodchi olimlar Z.Axrорov va Sh.Jalilovlar «Moliyaviy barqarorlik – bu bank moliyalashtirish manbalari tarkibida o'z mablag'lari yetarli hissasini ta'minlovchi moliyaviy holatidir. O'z mablag'lari yetarli hissasi moliyalashtirishning jalg qilingan manbalari to'liq va o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlashda foydalilanishim anglatadi» [1] deya ta'rif berishgan.

Ye.V.Korchagina o'z qarashlarida quyidagicha ta'rif keltirib o'tadi. «Moliyaviy barqarorlik – o'z mablag'larini investitsiya shaklida yo'naltirish, faoliyat va ishlab chiqarish siklining yangi yo'nalishlarini tashkil qilishni qo'llab-quvvatlash, kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni moliyalashtirish va moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlanganlik darajasi orqali izohlanadi» [2].

I.A.Pavlova fikricha, bank moliyaviy barqarorligining mohiyati “uning shunday moliyaviy holatidirki, unda bankning xo'jalik faoliyati uning barcha majburiyatlarini ta'minlashga imkon beradi [3]”. I.N.Omelchenko va Ye.V.Borisovalar fikricha, “moliyaviy barqarorlik - doimiy tarzda bozor kon'yunkturasi o'zgarib borishi sharoitida bankning o'z moliyaviy stabilligini saqlab qolish qobiliyatidir [4]”. L.T.Gilyarovskaya va A.A.Vexorevalar ta'kidlashicha, bank moliyaviy barqarorligi tushunchasi uning shunday holatidirki, bunda mavjud resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida nafaqat to'lovga layoqatlilik ta'minlandi, balki shu bilan birga foyda va kapitalning o'sishiga erishish maqsadidagi rivojanishga ham erishiladi [5]”.

N.L. Danilova banklarning moliyaviy barqarorligi bo'yicha quyidagi ta'rifi keltirib o'tadi. Unga ko'ra “moliyalashtirish manbalarining bir qismi sifatida o'z kapitalining yetarli ulushi bilan ta'minlanadigan bank moliyaviy holatining barqarorligi bankning moliyaviy barqarorligi deylidi [6]”.

«Bank moliyaviy barqarorligini baholash uchun bir nechta turli yondashuvlar qo'llaniladi»: «kan'anaviy, resursli-boshqaruv, resurs yondashuvi, stoxastik tahlil asosida baholash, ko'pliklar nazariysi va boshqa turdag'i hisob usullaridan foydalanish mumkin» [7] ligi haqida D.A. Yendoviskiy hamda A.V.Yendoviskayalar o'z ilmiy qarashlarini keltirib o'tishgan.

A.U.Burxanovning fikricha: «moliyaviy barqarorlik: birinchidan, «birgina korxona sarmoya tarkibini emas, balki umuman korxona moliyasi xolatini tafsiflaydi»; ikkinchidan, «foyda olish va qarzlarini to'lash, korxona o'z faoliyatini moliyalash imkoniyati va resurslar aylanish tezligining bir maromda rivojanib borishiga asoslangan korxonalar faoliyatining kompleks ko'rsatkichidir»; uchinchidan, «korxonaning ishlab chikarish va moliyaviy faoliyati natijalarini aks ettiradi hamda ular o'tasidagi teskari aloqani hisobga olgan holda ushbu natijalar uyg'unligining tizimli jarayonini o'zida namoyon etadi»;

to'rtinchidan, «korxonaning aylanma mablag'larini boshqarish orqali sarflangan sarmoyaga eng yuqori daromad olishni ta'minlaydi» deya ta'kidlaydi [8].

I.T. Balabanov "bankning moliyaviy barqarorligi mablag'larni joylashtirish va ulardan foydalanish, foya miqdori hisobiga o'z mablag'larini to'ldirish, shuningdek rejani, asosiy va aylanma mablag'larning aylanman tezligini hisobga olgan holda boshqa manbalar bilan tavsiflanadi [9]".

A. D. Sheremet va R. S. Sayfullinlar moliyaviy barqarorlikni bankning mavjud aktivlari yordamida o'z majburiyatlarini qoplash qobiliyati deb hisoblashadi. Mualliflar kompaniyaning mavjud manbalarining tarkibi va tuzilishiga alohida ahamiyat berishadi, shuningdek, holatni tahlil qilishda naqd pul aylanmasi dinamikasini hisobga olishadi [10].

Shuningdek, ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda bank moliyaviy barkarorligini ta'minlashning yanada batafsil yoritib berilgan holatlar ham yo'q emas. Masalan, «... Moliyaviy barqarorlik - bu mumkin bo'lgan iqtisodiy o'zgarishlar va zarbalarga qaramay, moliyaviy institutlar va bozorlar tizimining samarali va barqaror ishlashi qobiliyatidir. Bu moliyaviy inqirozlarining yo'qligi yoki minimal darajasi, bank tizimining barqarorligi, iqtisodiyotning real sektor uchun moliyaviy xizmatlarning ishonchiligi va qulayligi bilan tavsiflanadi.

### Tadqiqotni amalga oshirishda foydalilanigan usullar (Methods/Методы).

Tadqiqotni amalga oshirishda qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.

#### Olingan natijalar (Resulrs/Результаты).

Olib borilgan tahlillar natijasida O'zbekiston tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholashga turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ular baholash maqsad va vazifalariga qarab farqlanishiha iqtisodiy sub'ektlar ko'pincha nazorat organlari tomonidan qo'llanilayotgan va tasdiqlangan metodika hamda modellarning rivojlanishiga to'siq bo'layotgan holatlar hamda ularni bartaraf etish yo'llari asoslab berilgan.

#### Tahlillar (Analysis/Analiz).

Tijorat banklarining moliyaviy holatini tahlil qilish uni har tomonlama baholash bilan yakunlanadi. Har tomonlama baholashdan so'ng, kompaniyaning kelajak va kelgusi davrlarda moliyaviy strategiyasini ishlab chiqishga alohida e'tibor berib, moliyaviy holatni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Moliyaviy tahlil natijasi, qoida tariqasida, bankning moliyaviy holatini yaxshilashga qaratilgan tavsiyalardir. To'lov qobiliyati, likvidligi va moliyaviy barqarorligi iqtisodiyotni transformasiyalash sharoitida bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini har tomonlama tavsiplashga imkon beradigan yagona tizimni tashkil etadi. Moliyaviy barqarorlik umumlashtiruvchi baholash ko'rsatkichi bo'lib, to'lov qobiliyati va likvidligi xususiy omil ko'rsatkichlari hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilish bankning moliyaviy holatini tahlil qilishning muhim tarkibiy qismidan biridir. Mavjud iqtisodiy adabiyotlarda va hozirgi amaliyotda bankning moliyaviy barqarorligini baholashning turli yondashuvlarini uchratish mumkin.


Moliyaviy barqarorlikning tarkibiy asosini kapital, likvidlik, samarali tartibga solish va nazorat qilish, risklarni boshqarish va shaffoflik tashkil etadi. Ushbu komponentlarning birgalikda qo'llanilishi iqtisodiy qiyinchiliklarga dosh bera oladigan va uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlaydigan barqaror moliyaviy tizimni yaratishga yordam beradi.

Bundan tashqari, moliyaviy tahlil hozirgi vaqtida iqtisodiy va tegishli fanlarga oid turli xil usul va usullarning katta to'plamini o'z ichiga oladi. (1-rasm)

Bank uchun qarzga olingan kapital ma'lum bir xavf ulushiga ega, chunki bankning moliyaviy ahvoldan qat'i nazar, kreditlar va ular bo'yicha foizlar o'z vaqtida to'lanishi kerak. Kompaniyaning o'z majburiyatlarini bajara olmasligi yo'qotishlarga va natijada barcha kapitalning ishlatalishiga olib keladi. Bunday holat bankni bankrotlikka olib kelishi mumkin. Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilish moliyaviy tahlilning ajralmas qismi bo'lib, uning asosiy usullari quyidagilardan iborat: gorizontal, vertikal, tendensiya, koefitsiyent va omillarni tahlil qilish.

Tegishli tahlil koefitsiyentlarni hisoblash va ularning me'yoriy qiyatlari bilan taqqoslash, shuningdek ularning dinamikadagi o'zgarishlarini taqqoslash orqali amalga oshiriladi. Bankning tashqi

investorlar va kreditorlarga bog'liqlik darajasi moliyaviy barqarorlikning nisbiy ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi.



1-rasm. Banklarning moliyaviy barqarorligini tahlil qilishning usuliy yondashuvlari<sup>1</sup>

Bank egalari o'z kapitalini maksimal darajada oshirish va moliyaviy manbalarining umumiy hajmida qarz mablag'larini minimallashtirishdan manfaatdor. Kreditorlar, shuningdek, moliyaviy barqarorlikni kapital, uning tuzilishi, to'lov qobiliyati va kelajakdagi moliyaviy barqarorlikka qarab baholaydilar.

Shunga asoslanib, banklarning moliyaviy barqarorligini baholashning asosiy vazifasi bankning qarz kapitaliga bog'liqlik darajasini aniqlashdir.

Ba'zi tadqiqotchilar tijorat banklarining moliyaviy barqarorligining ajralmas ko'rsatkichini hisoblashni taklif qilishadi. Bankning moliyaviy barqarorligini baholash bo'yicha yondashuvlarning kengaytirilgan ro'yxati 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval  
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashga yondashuvlar

Nº	Yondashuv nomi	Ta'rifi	Baholash natijasi
1.	Umumiy yondashuv	Moliyaviy barqarorlikning mutlaq ko'rsatkichlarini tahlil qilish	Moliyaviy barqarorlik turni aniqlash
2.	Koeffitsiyent yondashuv	Moliyaviy barqarorlikning nisbiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish va ulamiy normativ qiyatlarni bilan taqqoslash	Bankning raft va kuchli tomonlarning haqiqi moliyaviy holatni aniqlash
3.	Marjinal yondashuv	Xarajatni doimiy va o'zgartirishiga bo'lish va manzuli daromad ko'rsatkichlarning qolish orqali rentabellik chegarasini hisoblash	Moliyaviy barqarorlik zaxarini aniqlash
4.	Skoringli yondashuv	Moliyaviy barqarorlik ballidiagi ko'rsatkichlarga likvidlik koeffitsiyentlarini o'chish	Moliyaviy barqarorlik turni aniqlash
5.	Balans yondashuv	Balans modelidan foydalansh	Zaxarlar va asosiy yostishlari moliyalashtrish manbalari bilan qoplash darajasiga qarab moliyaviy barqarorlik baholash
6.	Integratsiyalashgan yondashuv	Moliyaviy barqarorlik o'zgarishlarning umumlashtirilishiga ko'rsatkichlarning vordamida moliyaviy barqarorlik darajasini integral baholash	Moliyaviy barqarorlik darajasini aniqlash va uning dinamikasini aniqlash
7.	Faktor yondashuv	Ko'rsatkichlar qazinini yaratish va ularning o'sish surʼatlarni tahlil qilishni o'z ichiga olgan moliyaviy barqarorlikning omilli tahlilini o'tkazish	Bankning moliyaviy holati to'g'risida xulosa chiqarilashga imkon beradigan ko'rsatkichlar dourasini aniqlash
8.	Matrisa yondashuv	Matrisa balanslarni tuzish	Balans aktivlarining tarkibi va sifatini va ulamiy moliyalashtrish manbalarining yetarligini hisoblash

Manba: Muallif tomonidan tuzildi

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi ularning muvaffaqiyatlari faoliyatining muhim jihatni hisoblanadi. E'tiborli jihat shundaki, ayrim koeffitsiyentlar moliyaviy barqarorlik va uni ta'minlash bo'yicha mavjud ma'lumotlarni beradi hamda ularning o'zaro bog'liqlik jihatlarini keltirib chiqaradi.

1. Investitsiyalarni qoplash koeffitsiyenti. Investitsiya obyektining moliyaviy barqarorligini baholash usuli. Bu moliyalashtrishning qaysi qismini barqaror majburiyatlar tashkil etishini aniqlashga imkon beradi: kapital va uzoq muddatli majburiyatlar. Agar korxonaning aktivlari likvidsiz bo'lsa va u joriy hisoblarini to'liq to'lay olmasa, investitsiyalarni qoplash koeffitsiyenti tushadi. Uning me'yoriy qiyatlari 0,7 dan 0,9 gacha. Ortigcha ko'rsatkich qarzni moliyalashtrish manbalaridan yetarli darajada foydalilmaganligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichni hisoblash uchun balans ma'lumotlari asos hisoblanadi.

Investor o'zining moliyaviy resurslarini yo'naltirgan loyihadan yetarli moliyaviy daromad olishdan manfaatdor. Shu bilan birga, investitsiyalarning rentabelligini nafaqat natijalar bo'yicha, balki uni amalga oshirishni boshlashdan avval aniqlash maqsadga muvofiq. Ushbu maqsadlar uchun moliyaviy hisobotdagi umumiy ma'lumotlar asosida hisoblanishi mumkin bo'lgan maxsus ko'rsatkich, ya'ni investitsiyalarni qoplash koeffitsiyenti qo'llaniladi.

## 1 – jadval

## Investitsiyalarni qoplash koeffitsiyentining o'zgarishi omillari

Nº	Koeffitsiyent kamayadi	Koeffitsiyent oshadi
1.	Korxona joriy hisoblarini to'lay olmagan holatda	Joriy majburiyatlarni to'lash korxonaning barqaror moliyaviy holatini yo'qotishiga olib kelmaydi
2.	Qisqa muddatda korxona aktivlarini realizasiya qilish qiyinlashgan holatda	Likvid aktivlar bazasi kengaygan holatda (joriy, tezkor, mutlaq likvidlik ko'rsatkichlari oshganda)
3.	Majburiyatlarni 12 oy ichida to'lash talab qilinganda	Muddati 1-yildan ortiq bo'lgan majburiyatlar hajmi o'sib borishi jarayonida

Investitsiyalarni qoplash ko'rsatkichi investitsiya obyektingin moliyaviy barqarorligini baholashga imkon beradi. Agar loyiha likvidlik darajasi past bo'lgan aktivlar yoki qisqa muddatli majburiyatlar bilan qo'llab-quvvatlansa, unga sarmoya kiritish riskli deb hisoblanishi mumkin.

O'z mablag'lari va uzoq muddatli majburiyatlar investitsiya obyekti uchun ishchonchli xavfsizlik manbai sifatida ko'rib chiqilishi mumkin: ular kamida 12 oy davomida kompaniya ixtiyorida bo'ladi. Joriy majburiyatlarni qoplash uchun ularni zudlik bilan loyihadan olib qo'yish shart emas.

Investitsiyalarni qoplash koeffitsiyentini hisoblash uchun ma'lumotni ochiq moliyaviy hisobotlardan olish mumkinligi sababli, ko'plab kredit tashkilotlari ushbu ko'rsatkichdan korxonaga kredit berish xavfini baholash uchun foydalananadir.

Investitsiya – bu kapital egasidan moliyalashtirish jarayonini aniqlashda iloji boricha ehtiyyot bo'lishni talab qiladigan murakkab ish bo'lganligini inobatga oлgan holda moliyaviy tahlil investitsiyalarni qoplash koeffitsiyentining aniq me'yoriy qiymatini ta'minlaydi, bu esa investitsiyalar samaradorligini baholashga imkon beradi.

Investitsiya qilingan mablag'larni qamrab olish koeffitsiyentini tahlil qilish bir nechta muhim omillarni hisobga olishni talab qiladi:

agar ko'rsatkich 0,9 dan yuqori bo'lsa, unda investitsiya obyekti ishchonchli deb hisoblanishi mumkin, ammo bu qisqa muddatli qarzni moliyalashtirish manbalaridan yetarli darajada samarali foydalanilmaganligidan dalolat beradi;

agar ko'rsatkich optimal (0,6-0,7) qiymatga yaqin bo'lsa, unda investitsiya qilingan mablag'larni yo'qotish ehtiymoli faqat sezilarli tashqi zarbalar (sheriklarning insofsizligi, valyuta kursining o'zgarishi va hokazo.).

2. Kapitallashuv koeffitsiyenti. Kapitallashuv koeffitsiyenti 1 so'm kapital uchun qancha qarz mablag'lari hisoblanganligini ko'rsatadi. Uzoq muddatli kreditorlik qarzlarini hajmini uzoq muddatli moliyalashtirishning umumiyligi manbalari bilan taqqoslaydigan ko'rsatkich bo'lib, ular uzoq muddatli kreditorlik qarzlaridan tashqari tashkilotning o'z kapitalini ham o'z ichiga oladi.

Kapitallashuv koeffitsiyenti korxonaning o'z faoliyatini moliyalashtirish manbasining kapital shaklida yetarlilikini baholashga imkon beradi. Ularning haqiqiy nisbatini shakkantirish uchun standart qiymati 1-1,5 oralig'ida barcha tarmoqlar uchun bir xil bo'lgan kapitallashuv koeffitsiyentini aniqlash muhimdir.

## References:

- Axrorov Z.O., Jalilov Sh. Banklarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalalari. Risola. – Samarkand: SamISI, 2017. – 27 b.
- Корчагина Ye.B. Проблемы конкурентоспособности в современной экономике // Проблемы современной экономики. 2005. № 3/4 (15/16)
- И.А. Павлова// Финансы и кредит, 2017г.,«Анализ и прогнозирование финансовой устойчивости организации с учетом жизненного цикла на основе интегрального показателя». 23 (июнь), с. 71-75.
- Омельченко И.И. Финансово экономическая стабильность как составная часть организационно экономической устойчивости предприятия // Вестник машиностроения. 2017. № 4. С. 65.
- Гиляровская Л.Т, Вехорева А.А. Анализ и оценка финансовой устойчивости коммерческого предприятия. СПб., 2013. С. 13.
- Данилова Н.Л. Анализ финансовой устойчивости предприятия [Электронный ресурс] // Ассоциация «Открытая наука». Выпуск № 2. 2014
- Ендовицкий Д.А., Ендовицкая А.В. Системный подход к анализу финансовой устойчивости коммерческой организации // Экономический анализ: теория и практика. 2005. № 6 (39)
- Burhanov A.U. "Banklar moliyaviy barqarorligi: nazariya va amaliyot". Monografiya. T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2019. 160 b.
- Шеремет, А.Д. Методика финансового анализа / [Текст]: А.Д. Шеремет, Р.С. Сайфуллин. - М.: ИНФРА-М, 2015.
- Баканов М.И. Методы финансового планирования и прогнозирования на предприятиях / О. А. Ляенко // Вестник Прикамского социального института. – 2016. – № 2. – С. 52-55...

Ko'rsatkichning pasayishi korxona moliyaviy holatining mustahkamlanishidan dalolat beradi va uning o'sishi qarzni moliyalashtirishga bog'liqligining oshishini aks ettiradi.

Ushbu koeffitsiyent tadbirdorlik xavfini baholashga imkon beradi. Koeffitsiyent qiymati qanchalik yuqori bo'lsa, tashkilot uning rivojlanishida qarz kapitaliga qanchalik bog'liq bo'lsa, moliyaviy barqarorlik shunchalik past bo'ladi.

Shu bilan birga, yuqori koeffitsiyent darajasi kapitalning mumkin bo'lgan rentabelligini (kapitalning yuqori rentabelligini) ko'rsatadi. Biroq, faqat o'z moliyalashtirish manbalaridan foydalanish ham ijobiy omil emas, chunki u egalarining investitsiyalari daromadliligini kamaytiradi.

3. Qisqa muddatli qarz nisbati koeffitsiyenti. Qisqa muddatli qarz nisbati korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarining tashqi majburiyatlarining umumiy hajmidagi ulushimi ko'rsatadi (qarzning umumiy miqdorining ulushi qisqa muddatli to'lashni talab qiladi).

Yuqorida keltirilgan moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlarining o'zaro bog'liqlik jihatlarini o'rganish natijasida, moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti korxonaning pozisiyasi qanchalik barqarorligini va yaqin kelajakda moliyaviy muammolar una tahdid soladimi yoki yo'qligini ko'rsatishini hamda korxonani moliyalashtirishning qancha uzoq muddatli va barqaror manbalarini borligini aniqlash mumkin.

## Natijalar interpretatsiyasi (Discussion/Обсуждение).

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish davomida quyidagi savollar paydo bo'ldi va ularga quyidagicha javoblar shakllandi: O'zbekistonda banklar moliyaviy munosabatlarning umumiy tavsifi, nazariy va funksional asoslari qanday? Tijorat banklari moliyasiini tashkil etish va korxonalarining moliyaviy mexenizmlarini ishlab chiqishning me'yoriy-huquqiy asoslari mavjudmi? Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning zarurligi, iqtisodiy mohiyati va vazifalari nimada? Mazkur tadqiqotni amalga oshirish davomida ushbu savollarga asosli javoblar shakllantirildi.

## Maqola bo'yicha xulosa va takliflar (Conclusions/Заключения).

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, tijorat banklarini malakali va samarali boshqarish uning moliyaviy barqarorligida asosiy rol o'yinaydi. Yaxshi boshqaruv operatsion jarayonlarni optimallashtirish, xarajatlarni minimallashtirish va rentabellikni oshirishga yordam beradi. Shuningdek, koeffitsiyentni hisoblashda ko'rib chiqilayotgan kompaniyaning asosiy xususiyatlarini hamda uning sohaga qay darajada bog'liqligini hisobga olish maqsadga muvofiq. Agar bankning moliyaviy barqarorligi ko'rsatkichlari tizimi natijalari qoniqarsiz bo'lsa, bank moliyaviy jihatdan beqaror hisoblanadi. Moliyaviy beqarorlikning salbiy oqibatlari inqiroz, eng yomon holatda esa uning bankrotligi hisoblanadi. Tijorat banklari moliyasiini tashkil etish va samarali boshqarish ahamiyati yuqoriligi va o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi, bankning riskni samarali boshqarish qobiliyati uning moliyaviy kuchiga ta'sir qilishi mumkin.